

INSON HUQUQLARI SOHASIDA MILLIY INDIKATOR SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Pulatov Hayot Abdugani o'g'li
CHDPU magistranti

Ilmiy rahbar: professor Ikramov R.A.

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro norma va standartlarni samarali amalga oshirish zaruratini tug'dirmoqda. Albatta, bunday jarayonlar inson manfaatlari uchun xizmat qiluvchi milliy huquq normalarini takomillashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu maqolada mazkur normalarda inson huquqlarini ta'minlash darajasini belgilab beruvchi indikatorlarning aks ettirilishi hamda inson huquqlari bo'yicha milliy indikator shakllantirish zaruriyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: инсон, инсон ҳуқуқлари, инсон манфаатлари, давлат, қонун, халқаро ҳамжамият, субъект, муҳофаза, эркинлик.

THE NEED TO DEVELOP A NATIONAL INDICATOR IN THE FIELD OF HUMAN RIGHTS

Pulatov Hayot Abdugani o'gli
Master's student of Chirchik State Pedagogical University
Scientific supervisor: professor Ikramov R.A.

Annotation. The large-scale reforms being implemented in our country necessitate further improvements to mechanisms for ensuring human rights and freedoms and the effective implementation of international human rights norms and standards. Such processes are, of course, unthinkable without the improvement of national legal norms that serve human interests. This article examines how these norms reflect indicators that determine the level of human rights protection and the need to develop a national human rights indicator.

Keywords: international community, state, subject, law, human, human rights, human interests, protection, freedom.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗРАБОТКИ НАЦИОНАЛЬНОГО ИНДИКАТОРА В ОБЛАСТИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Пулатов Хаёт Абдугани углы

(Магистрант Чирчикского государственного педагогического университета)

Научный руководитель: профессор Икramов Р.А.

Аннотация. Масштабные реформы, реализуемые в нашей стране, обуславливают необходимость дальнейшего совершенствования механизмов обеспечения прав и свобод человека, эффективной реализации международных норм и стандартов в области защиты прав человека. Безусловно, подобные процессы немыслимы без совершенствования национальных правовых норм, служащих интересам человека. В данной статье рассматривается отражение в этих нормах показателей, определяющих уровень защиты прав человека, и необходимость формирования национального индикатора по правам человека.

Ключевые слова: международное сообщество, государство, субъект, право, человек, права человека, интересы человека, защита, свобода.

Kirish

Bugungi kunda jahonning 80 dan ortiq davlati o'zining inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyasi yo rejasini qabul qilgan. Ular orasida Avstraliya, Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Italiya, Norvegiya, Xitoy, Yaponiya, Gruziya, Latviya, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya, Indoneziya, Meksika kabi mamlakatlar bor.

O'zbekiston ham bu borada muayyan ijobiy tajriba to'plagan davlatlar sirasiga kiradi. Xususan, 2020 yilda qabul qilingan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi va mamlakatimizda inson huquqlari kafolatlarini ta'minlashga munosib hissa qo'shdi[3]. O'z navbatida, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan Milliy strategiyasi loyihasini ishlab chiqish vazifasi 2025 yilgi Davlat dasturida belgilangan bo'lib, O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan inson huquqlari sohasidagi davlat siyosati asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan[4].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Inson huquqlari genezisining ildizlari qadimgi sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Misr, Bobil va Hindistonda inson huquqlari tushunchasiga oid ilk qarashlar paydo bo'lgan. Xususan, Bobil podshohi Hammurapining qonunlari[7, 70] o'z davri uchun inson huquqlari va adolat tamoyillariga muvofiq bo'lgan huquqiy tizimni yaratishga urinishlardan biri sifatida baholashimiz mumkin. Shuningdek, qadimgi Gretsiya va Rimda falsafiy maktablar inson huquqlari haqida falsafiy munozaralar olib borilgan, ilmiy fikrlar bildirgan. Bunga misol sifatida, Sokrat, Platon va Aristotel kabi faylasuflarning adolat va inson qadr-qimmati tushunchalarini shakllantirishga qo'shgan hissalarini olishimiz mumkin. Ushbu falsafiy qarashlar keyinchalik inson huquqlari konsepsiyasining rivojlanishiga asos bo'lgan.

Qadimgi Sharqda inson huquqlari to'g'risida fikr yuritilganda, birinchi o'rinda Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"ga to'xtalish joiz. Inson huquqlari muammolari Markaziy Osiyoning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarida o'z aksini topgan. Bunga qadimgi va o'rta asrlardagi Markaziy Osiyoning diniy-falsafiy va huquqiy tizimlarining tahlili guvohlik bermoqda.

Muqaddas dinlarda ham, xususan, Islom dinida inson huquqlari va uning majburiyatlariga oid ko'plab axloqiy normalar kiritilgan. Shuningdek, o'rta asrlarda inson huquqlari tushunchasi Yevropadagi turli diniy va huquqiy qarashlar orqali rivojlandi. Masalan, Angliyada qabul qilingan 1215 yildagi "Buyuk ozodlik xartiyasi" inson erkinliklari va qonun oldida barcha tengligini kafolatlashga qaratilgan ilk hujjatlardan biri sifatida tan olingan.

XVIII asrda Yevropa va Amerikada inson huquqlari to'g'risidagi tushunchalarni huquqiy jihatdan asoslashga qaratilgan harakatlar kuchaydi. Jon Lokk, Jan-Jak Russo va Sharl Monteskye kabi faylasuflar insonning tabiiy huquqlari (hayot, erkinlik va mulk) haqidagi g'oyalarni ilgari surib, ularni himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratdilar. Ushbu g'oyalar AQShning "Mustaqillik deklaratsiyasi" [8] (1776) va Fransiyaning "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" [9] (1789) kabi hujjatlar qabul qilinishiga katta hissa qo'shdi.

Ushbu deklaratsiyalarda erkinlik, tenglik va inson qadr-qimmati kabi asosiy tamoyillar mustahkamlangan bo'lib, ular keyinchalik xalqaro inson huquqlarining rivojlanishiga zamin yaratgan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, inson huquqlarini xalqaro darajada muhofaza qilish zarurati yanada kuchaydi. 1948 yilda BMT tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" [10] inson huquqlarining xalqaro asoslarini belgilab berdi. Deklaratsiyada barcha insonlar uchun tenglik, erkinlik, xavfsizlik kabi huquqlar kafolatlandi. Shuningdek, keyingi yillarda inson huquq va erkinliklariga oid bir qator xalqaro shartnomalar va konvensiyalar qabul qilindi. Bular orasida "Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi" [11], "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" [12] kabi hujjatlarni sanab o'tish mumkin.

Muhokama va tahlil

Qonun va inson huquqlari nafaqat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, demografik va migratsiya sohalaridagi ijtimoiy munosabatlar va odamlarning o'zaro munosabatlarining eng aniq tartibga soluvchisi hisoblanadi. Inson huquqlarining holati va ularning ta'minlanishi barqaror rivojlanishning barcha sohalaridagi vaziyat haqida eng ishonchli tushunchani beradi. Inson huquqlarining yomon ahvoli yoki ularning barqaror rivojlanishning har qanday tarkibiy qismidagi buzilishi tizim barqarorligining buzilishi va shaxsning jamiyat va davlat bilan munosabatlaridagi nomutanosiblikdan dalolat beradi. Binobarin, inson huquqlari jamiyat taraqqiyotining barcha omillari, jumladan, davlatning huquqiy va ijtimoiy tabiatining realligi yoki illyuziya xarakterining samaradorligining ko'rsatkichidir.

Xo'sh, bugungi raqamlashgan jamiyatda milliy yangi takomillashayotgan qonunlarimizda inson huquqlarining maxsus indikatorini shakllantirishda nimalarga ahamiyat berishimiz lozim? Davlat tomonidan bu kabi indikatorlarni shakllantirish va takomillashtirish masalalari qanday tartibda amalga oshiriladi? Nima uchun indikatorlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega? Indikatorlarsiz davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotini tartibga solish mumkinmi?

Ma'lumki, bugungi kunda xalqaro inson huquqlari sohasida BMT tomonidan 18 ga yaqin xalqaro hujjat qabul qilingan bo'lib, mazkur hujjatlarda insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa turdagi huquqlarini kafolatlovchi xalqaro normalar aks ettirilgan bo'lib O'zbekiston shu hujjatlarning 11 ga yaqinini o'z milliy qonunchiligiga ratifikatsiya qilgan. Bular quyidagilardir[1]: "Irqiyl kamsitishning barcha shakllariga barham berish haqidagi Konvensiya" (1965 yil); "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" (1966 yil); "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" (1966 yil); "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya" (1979); "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" (1989); "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" (2006); "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt"ning fakultativ protokoli (2008) kabilar.

Mazkur inson huquqlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan norma talablari davlatlarning milliy qonun hujjatlarida ham aks ettirilishi va har bir norma talablarini ishtirokchi davlat tomonidan qay darajada

ta'minlanayotganligini baholash maqsadida xalqaro inson huquqlari indikatorlari, milliy darajada ta'minlanayotganligini baholash maqsadida esa inson huquqlari sohasida milliy indikatorlar ishlab chiqilishi lozimdir.

Bugungi kunda qator mamlakatlar tomonidan mazkur xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilinmasada, inson huquqlarini imkon qadar milliy qonun hujjatlari doirasida hal etishga urinish holatlari anchagina bu albatta taqsiinga sazovor desak mubolag'a qilmagan bo'lamz. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, mazkur hujjatlarda inson huquqlarini ta'minlashning minimal darajasi ifodalanib, uning maksimal darajasini hech bir mezon bilan belgilanmaydi. Ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilinishi darajasi davlat uchun inson huquqlari indikatorlarini yaratishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro Paktlar, statutlar, protokollar va konvensiyalar ratifikatsiya qilingan davlatda albatta huquqiy kuchga ega bo'lgan hujjat sifatida e'tirof etiladi. Deklaratsiya, tamoyillar, ko'rsatmalar va standart qoidalar esa majburiy kuchga ega bo'lmasada, inkor etilmaydigan ma'naviy hujjatlar sifatida davlatga amaliy yordam berishga xizmat qiladi.

Davlat indikatorlarni shakllantirishni inson huquqlari sohasining muayyan bir tarmog'ini, masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar yoki bolalalar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi normalarni tanlashdan boshlaydi va ushbu norma doirasida indikatorlar yaratiladi.

Inson huquqlari sohasidagi indikatorlar shakllantirish jarayoni 3 ta asosiy standartni qamrab olishi, ya'ni huquq normasida aks etishi, ijtimoiy so'rovlar, mutaxassis xulosalari va fikr - mulohazalarga asoslanishi va subyektlar doirasi (kamsitishga yo'l qo'ymaslik) belgilanishi lozim. Ushbu indikatorlarni shakllantirishda eng asosiysi diskriminatsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik va disaggregatsiya masalalarini (jins, yosh, din, hudud, guruh va shu kabi belgilarni) qamrab olishi lozim. Quyida indikatorlarni shakllantirish jarayonlarini ko'rib o'tamiz [3].

Inson huquqlari indekatorini yaratishda biz quyidagilarga katta e'tibor berishimiz maqsadga muvofiq, indikator moddiy huquq normalarga, jarayon natijalariga va rasmiy tasdiqlangan statistic ma'lumotlarga asoslanishi kerak; indikator yuz berib

turgan xodisalarga o'tkazilayotgan so'rovnomalarga hamda sohaning yaxshi mutaxassislarining fikr mulohazalariga asoslanishi lozim; indikatorni shakllantirishda insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini, davlat organlarining insonlarga bo'lgan munosabatlarini, OAV va Davlat organlari hamdan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan holda hisobotlarni har chorakda yangilab borilishi zarur [2].

Albatta, inson huquqlari normalari muayyan hususiyatlar (atributlar)ga ega bo'lishini inobatda olib, har bir hususiyatni ifodalovchi indikatorlar shakllantiriladi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida nazarda tutilgan insonning yashash huquqi 4 ta hususiyatni [5], ya'ni "o'zboshimchalik bilan hayotdan mahrum etish", "shaxsning majburan yo'qolishi", "sog'ligi va ovqatlanishi" hamda "o'lim jazosi" kabilarni qamrab oladi. Mazkur normalar "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" mazkur paktning o'lim jazosini bekor qilish to'g'rida"gi 2-fakultativ protokoli, "Barcha shaxslarning majburan yo'qolib ketishidan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya" va "Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga qarshi Konvensiya" normalarida batafsil o'z aksini topgan.

Inson huquqlari va ularning tamoyillari zamonaviy dunyoda qadriyat yo'riqnomasidir. Bu tamoyillar tarixan shakllangan, boyitilgan, sayqallangan va bugungi kunda umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismidir. Ushbu tamoyillar demokratik mamlakatlarda inson huquqlari rivojlanishining tarixiy tajribasini, shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoya qilish to'g'risidagi xalqaro paktda, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy jihatlarini o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozim, har bir davlat tomonidan inson huquqlarini ta'minlashda nafaqat milliy huquq normalarini, balki ushbu normalarda sanab o'tilgan huquq va burchlarning o'ziga xos hususiyatlari darajasini belgilab beruvchi milliy indikatorlarni shakllantirish birinchidan, mukammal huquq normasini yaratishga xizmat qiladi; ikkinchidan, davlatda inson huquqlarini himoya qilishning samarali

mexanizmi ishlab chiqiladi; uchunchidan, davlatning xalqaro indekslardagi nufuziga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aniqroq qilib aytganda, inson huquqlari sohasidagi indikatorlar mazkur sohada jamiyatdagi real holatni davlat tomonidan baholash va monitoring qilish mexanizmini yaratilishiga xizmat qiladi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy indikatorni ishlab chiqish zarurati huquqlarni himoya qilishni standartlashtirish, davlat siyosatini birlashtirish, ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash, xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. Bu taraqqiyotni xolisona baholash, muammoli yo'nalishlarni aniqlash, muvofiqlashtirilgan, odamlarga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 14.01.2021 yildagi “O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4951-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6012-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4872355>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. // <https://lex.uz/docs/5841063>
5. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (Nyu-york 10.12.1948 yil) BMT Bosh Assambleyasining 10.12.1948 yildagi 217 A (III) ko'rsatmasi asosida <https://www.un.org>;
6. For example, the United Nations Declaration on the Rights of Indigenous Peoples elaborates on existing international human rights as they apply to indigenous peoples
7. Османов М.М. Краткий анализ возникновения и развития гарантий прав и свобод человека в уголовном процессе в древний период. /. // Образование и право, № 6. 2022. -С.70.
8. The Declaration of Independence, 1776. <https://history.state.gov/>
9. Declaration of the Rights of Man and of the Citizen. <https://www.britannica.com/>
10. Universal declaration of human rights <https://www.un.org/>
11. European Convention on Human Rights <https://www.echr.coe.int/>
12. Convention on the rights of the child <https://www.unicef>.